

## **SHARQ XALQLARI ADABIYOTIDA IT OBRAZI TASVIRLANGAN ASARLAR.**

*Jalolova Barchinoy Botir qizi  
Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti univesiteti  
Adabiyot nazariyasi yo'naliishi magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola qadimdan bugunga qadar yetib kelgan badiiy adabiyotdagi It obrazining kelib chiqishi va o'rganilish tarixini yoritib berish bilan birgalikda Sharq xalqlari hayotida it obrazining qanchalar keng yoyilganini va ilmiy tadqiq etilganligini yoritib beradi.

**Kalit so'zlar:** obraz, obrazlar tahlili, it obrazi, miflar, folklor, Hadisi sharif, As'hobi kafh.

**Абстрактный.** В данной статье вместе с историей возникновения и исследованием образа собаки в художественной литературе, дошедшей до наших дней, объясняется, насколько широко и научно исследован образ собаки в жизни народов Востока.

**Ключевые слова:** образ, анализ образов, образ собаки, мифы, фольклор, Хадис Шариф, Ашоби Кафх.

**Abstract.** This article, together with the history of the origin and study of the image of the dog in the fiction that has reached the present day, explains how widespread and scientifically researched the image of the dog is in the life of the peoples of the East.

**Key words:** image, analysis of images, image of a dog, myths, folklore, Hadith Sharif, Ashobi Kafh.

Adabiyot tabiatni, insonni, umuman olganda, olamni aks ettiradi. Ijodkor o'z histuyg'ulari, o'y fikrlarini, maqsad muddaosini asaridagi obrazlar orqali o'quvchiga yetkazishga harakat qiladi. Avvalo, obraz tushunchasiga to'xtalib o'tsak. Obraz ko'rgazmalilik xususiyatini namoyon etadi, u voqealarni mavhum mulohazalar bilan emas, balki hissiy umumiyligi, ixcham, bir butun takrorlanmas tarzda namoyon etadi.

Obrazning badiiyligi mavjud voqelikni aks ettirish va uni anglash xususiyati bilan emas, balki badiylik obrazning yangi o‘ylab chiqarilgan dunyo yarata olish imkoniyatida yuzaga chiqadi. Obrazda obyektiv mavjud va muhim jihatlar bilan birga, bo‘lishi mumkin bo‘lgan, mo‘ljaldagi, xohishdagi, ya’ni turmushning emotsiyal-irodaviy munosabat, uning ko‘rinmas, ichki imkoniyatlari bilan bog‘liq xususiyatlar ham muxrlangan bo‘ladi.

Badiiy obraz xususiyatlarini o’rganishni atamaning mazmunidan boshlagan ma’qulroq. “Obraz” atamasi “raz” (“chiziq”) so‘zidan olingan bo‘lib, “raz” so‘zidan “razit” (“chizmoq, yo‘nmoq, o‘ymoq”) va undan “obrazit” (“chizib, o‘yib, yo‘nib shakl yasamoq”) so‘zi yasalgan. “Obrazit”dan “obraz” (“umuman olingan tasvir”) vujudga kelgan. Aslida “obraz” slavyan tillariga xos so‘z bo‘lib, u voqealarni hodisalarining xayolda namoyon bo‘ladigan manzarasini bildiradi.

Qayerda faqatgina tasavvur yoki faqatgina aqlga e’tibor qaratilsa, o‘sha yerda ijodning bir tomoni alohida qimmat kasb etadi va umuman olganda, avlodlar didini qoniqtirmaydi. Faqatgina ikkala tomon bab-barobar tamoyilga ega bo‘lgandagina to‘g‘ri yo‘l topilgan bo‘ladi. Shuning uchun ham Shiller “Tasavvur aql bilan birlashganda shoir-san’atkorni yetishtiradi”, - deydi. Ha, tasavvur faqatgina aql ishtirokida haqqoniylik kasb etadi. Endi esa Qadimgi hsarq xalqlari adabiyotidagi it obrazlariga to‘xtalib o‘tsak. Sharq xalqlari adabiyotida It obrazi qadim miflarga borib taqaladi va it insonga yaqin hayvonlardan biri ekanligi aytiladi. Miflar o‘z navbatida 3 guruhga ayrıldi. 1. Kosmogoniya va kosmalogiya. Olamning yaratilishi va tuzilishiga ko‘ra miflar; 2. Panteon va sostium. Tangri va ilohiy kuchlar haqidagi miflar; Shulardan 3-guruh etnogoniya – a) turkiy qabilalarning kelib chiqishi haqidagi miflar, 2) ilk ajdodlar to‘g‘risidagi miflar bo‘lib, ularning tarkibida Baroq to‘g‘risidagi mif mavjud. Yuqorida ko‘rsatilgan mifologiksujetlar turkumi qadimgi turkiy mifologiyaning asosini tashkil etadi va turkey xalqlarning barchasi uchun umumiy-mushtarak epik zamin hisoblanadi. Bu davrda yaratilgan miflarning orasida o‘zbek folklori uchun eng xarakter xuxusiyati mos keladigani bu-Baroq mifidir. Baroq yoki it-qush obrazi qadimgi turkey mifologiyada keng tarqalgani sababli uning bir nechta syujet

na‘munalari shakllangan. Avvalo, Baroq so‘zining lug‘aviy ma‘nosining ko‘zdan kechirsak. Baroq so‘zi itning ma’noviy ramzi sifatida ishlatilgan. it-qush baroq obrazini XI asrda Mahmud Qoshg‘ariy “devonu lug‘otiit turk” asarida Baroq – serjun it,o‘z navbatida, qush ma‘nosini anglatadi. Baroq so‘zining lisoniy genezesi qush ma‘nosini beruvchi leksemaga borib taqaladi. Tungus-manjur tillarida **bara** chittakka o‘xshash qush, evenk va yoqut tillarida esa **barak** baliqachi qushni anglatgan. Mashhur turk olimi A.Caferog‘lunun asarida ilk marotaba Broq kalimasi, O‘g‘uzxon ga dushman bo‘lgan afsonaviy bir qavmning nomi shaklida uchraydi. Ayni vaqtda u podishohning ismi bo‘lgan. Shu sababli, Xorazm diyorida o‘tkazilgan qazilmalar natijasida III, IV. Asrlarga oid Baroq-tam deb nomlangan bir xaroba afsonaviy hukmdorga bag‘ishlab qurilgani aytildi.

Qadimgi miflardan yana biri qozoq xalqlariga mansub bo‘lib, it-olazoq degan qush mozorga in qurar va undan qush o‘rniga kuchukchalar ciqarmish qush kuchukchalar chiqqanini ko‘rib qo‘rqib ketar va bolalari nobud bo‘larmish. Bunday kuchukchalar olg‘ir itlar hisoblaib, kamdan kam odam ularga egalik qilarmish. Qadimgi miflarda kelgan it obrazlari asosan afsonaviy mavjudot sifatida tasvirlangan. Bazi izlanishlarga ko‘ra qadimgi Sharq xalqlari asosan, chorvachilik va ov bilan shug‘ullanganligi sababli ularga baquvvat, izlaganini topmay qo‘ymaydigan kuchli itlarga ehtiyoj mavjud bo‘lgan. Shu tariqa ular o‘z orzularini miflar orqali ajdoddan avlodga meros qilib qoldirishgan. Miflar bilan bir qatorda Sharq folklorida ham it obrazi mavjud. Ulardan biri “Alpomish” dostonida tasvirlangan Boybo‘ring iti Ko‘kqashqa hisoblanadi. Dostonda Ko‘kqashqa “Boybo‘ribyning Ko‘kqashqa degan iti bor edi, olg‘ir ediki, bo‘ri, boshqa narsani yaqinlashtirmasdi. Bu cho‘ponlar bilan ketmasdan ovulda qolgan ekan. Elomon Qalmoqqa ketmasdan avval Boybo‘ri bobonikida ham yurar edi. Shunda Ko‘kqashqa kuchukni ovqat berib kattartirgan edi. Elomonning “boybobo”, deb ovozi chiqqandan joyidan turib, jo‘nab qo‘yaverdi, dabiri otning dabiriday.

Yondab kezar tog‘u toshga,

Ovozi juda boshqa.

Bu kecha ketmagan dashtga,

Jo‘nab qo‘yaverdi Ko‘kqashqa.  
Kim bilar kechaning ishini,  
Kechalab boybobo, deb,  
Elomonning tovushini.  
Safar qilsa olisga,  
Uzoq safar bo‘lsa qisqa Baland chaqadan Ko‘kqashqa,  
Tashlab qo‘yaverdi pastga.  
Erigan tog‘ning qori,  
Uxlab qolgan xalqning bari.  
Elomonga boraverdi,  
Boybo‘rining vafodori.  
Elomon bir vaqt qaradi,  
Ovul ko‘ppagining bari,  
Hovullab to‘kilib boradi.  
Elomonning aqli shoshib,  
Ko‘ppaklar bordi etishib,  
Kechaning bevaqt ishi,  
Elomonga boradi shing‘illagan tovushi.  
Ko‘ppaklar tashlab o‘zi[n],  
Chorvador xalqning ovulida,  
Ko‘ppakning bari qo‘rqdi,  
Ko‘kqashqanining xilidan.  
Kuchukli ko‘k vafodor,  
Qaytargan Elomon qo‘lidan.  
Elomonni ko‘rmaganiga,  
Oshibdi yetti yilidan” – deya tariflanadi. Shu o‘rinda dostonda Ko‘kqashqaga it deb qolgan itlarga ko‘ppak den nom aytilgan, bu ham it so‘zining ma’nosи ko‘ppakdan biroz yuqori dadaraja turishini bildiradi. Ko‘kqashqa o‘z egasiga shu qadar vafoliki,

uni himoya qiladi. Itning insonga do'st ekanligini shu misol bilan ham tasdiqlash mumkin.

Obrazlarning shakllanishi Va taraqqiyotida diniy ishonchlar ham muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan it obrazi qadimgi zardushtiylik dini ishonishlarida ham mavjud bo'lib, hayvonlar orasidagi eng pok jonzot deb bilingan."Avesto"da aytilishicha, Chinvat ko'prigi ustida turadigan it o'liklar mulkining hukmdori emish. Uning nigohi har qanday yozuv kuchni daf qila olarmish. Qolaversa it bekishikni unga kirishi mumkin bo'lgan yovuz kuchlardan himoya qiluvchi sehrli obraz hisoblangan.Zardushtiylik dinida keltirilgan it obrazlari ham qadimgi miflar singari o'zida sehirlilikni qamrab olgan.It-kuch qudrat,poklik, tinchlik ramzi hisoblangan. Itlarning insonlar hayotiga qanchalik singib ular bilan ruhiy yaqinlikda bo'lganini ko'rishimiz mumkin.Keyingi davrlarda Sharqda Islomning yoyilishi bilan It obrazining avvalgi anglatgan ma'nosidan o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin

Islomda itlar haqida qarashlar aralash bo'lib, bir tomondan itning noplari ekani uning isi tekkan kiyim bilan namoz o'qimaslik buyurilgani, ikkinchi tomondan Payg'ambar Muhammad a.s ning barcha hayvonlar qatori itlarga ham mehribonchilikda bo'lishlikni buyurganlari sabab hisoblanadi. Hadisi sharifda "Jannatga kiradigan o'n nafar hayvonlardan biri bu Ashobi kahfning vafodor itidir" deyilgan.(Al-jome al kabir) Shu o'rinda Ashobi kahf nima degan savol tug'ilishi mumkin.Qur'oni Karimning 18-surasi bo'lmish Kahf surasidir. Bu surada As'hobi kahf (g'orda qolgan odamlar) haqidagi tarixiy voqeа keltirilgan. As'hobi kahf mavzui O'zbek adabiyotiga ilk bor Qur'on bilan, so'ngra esa Qur'onning turkiy tafsirlari va tarjimalari orqali kirib kelgan.

Olimlarning fikriga ko'ra o'zbek adabiyotida bu mavzuga ilk bor 1310 yili Nosiriddin Rabg'uziy "Qisasi Rabg'uziy" asarida murojaat etgan. Ushbu asar payg'ambarlar hayot yo'li haqida turkey tilde yozilgan ilk na'muna ekani hammamizga ma'lum. Kitobda Daqyonus ismli podishoh o'z yurti xalqiga o'zini Xudo deb uqtirib o'ziga sig'inishga majbur qiladi. Xalq ichidan bir necha aka-ukagina unga sig'inmay bu shahardan qochishga urinishadi. (bazi manbaalarda 7 kishi bazilarida 8 deyiladi,

Qur’onda ularning soni keltirilmagan)yo’lda ularga bir cho’ponning iti ham ergashadi ular bir g’orga borishadi va shu yerda Alloh ularni 300yil uxlatib qo’yadi.Ular uyg’onganda esa Daqyonus davri tugagan bo’ladi. Sura mazmunidan ularning jannat ahillardan bo’lganliklarini anglaymiz. Shu sura asosida keying davrlarda mumtoz adabiyotda it obrazi shakllandiki yagona Allohga ergashish timsoli sifatida qo’llaniladi. As’hobi kahf mavzuining o’zbek mumtoz dostonlariga kirib kelishida buyuk shoir Alisher Navoiyning xizmati ulug’dir. Navoiy musulmonlik tushunchalarining xalq orasida keng yoyilishida xuddi Ahmad Yassaviy yo‘lidan borib, Qur’oni karim oyatlari va hadislarning ma’nolarini barcha asarlariga singdirib yuborgan. G’orda qolgan odamlar mavzui “Mahbubul qulub” asarida va “Lisonut tayr” dostonidagi “Shayx Najmiddin Kubroning so‘zi va itga tushgan ko‘zi” bobida talqin etilgan.

Yangi davr ijodkorlari bu dostondan, so‘ngra 1990 yillarda bosilgan Qur’onning o’zbekcha ma’nolar tarjimasidagi Kahf surasidan va boshqa diniy-ma’rifiy asarlardan ta’sirlanib she’rlar va hikoyalar yaratishdi. Masalan, Mahkam Mahmudning “As’hobi kahf” nomli hikoyasi bunga misoldir.

Globallashib borayotgan dunyoning global fojialaridan, chigal muammolaridan biri ma’naviy tarbiyasizlikdir. Bu vaziyatda As’hobi kahf mavzusining adabiyotda ishlanishi uning tarixiy, diniy va adabiy ahamiyatga egaligini ko‘rsatyapti. Insonlar imonga suyangan holda yashashi kerak. Imonsizlik ijtimoiy tengsizlik, zulm, odamlar va boshqa mavjudotlarning haq-huquqlarini poymol etish muammoi XXI asrning eng katta muammolaridan biridir. Bu nuqtadan boqilsa, As’hobi kahf mavzusining o‘zi va uning adabiyotda ishlanishi naqadar qiymatli ekani anglashiladi

Bulardan tashqari Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida shunday deydi:”It ta’lim o’rganib,shunday kamol topadiki,hatto,og’zida keltirgan ovi halol bo’ladi,olim haromni halol qilishga o’rgatuvchi it bo’lsa, o’g’ling bilimsiz bo’lsa uni bilimli odam bilimli qiladi” deydi. Navoiyning “Ey nubuvvat xaylig’a xotam...” deb boshlanuvchi Na’t g’azalidagi it obrazi haqida muhokama yuritamiz. Ushbu ishqiy asarning ma’qtasi

Itlarning maxsusu mahzundir Navoiy, koshki,

## Kirsa bu mahrum ham ul zumrayi mahram aro

Shunday edi. Navoiy ushbu bayt orqali o'zini yor oldida it qatori ham bo'lomaganiga o'kinadi. Ya'ni yorning maxsus itlari mavjud bo'lib, Navoiy o'sha yorni qo'riqllovchi itlar qatoriga kirolmayotganidan afsuschekadi. Bu bayt orqali Navoiy itning sadoqatli, vafodor do'st ekanligiga ishora qiladi. It hech qachon egasini qiyin holatda yolg'iz qoldirmaydi. Ma'lumki, it-odam tomonidan xonakilashtirilgan birinchi hayvon. Bu uy hayvonlari eng sodiq va aqlii hayvonlar hisoblanadi. Itning aqlii, yo'lboshchi, vafodor ekanligini A. Navoiy "Layli va Majnun" dostonida yana bir karra isbotlaydi. Ya'ni Qays (Majnun) ilk bora Laylini ko'rghanida hushini yo'qotadi, so'ng uni qidira boshlaydi. Layli qabilasi tomonda it ovozi eshitilganda Majnun ham itdek fig'on chekadi. Ruhim ozig'i bo'lgan, ey jonivor, sen g'am tuni vafo ko'rsatuvchi, yo'ldan adashganlarga rahnamolik, yo'lboshchilik qiluvchisan, hozir yorimni xohlagan vaqtingda ko'rolasan, u yurgan yo'llarda kezolasan, jamolini, mehrini tuyolasan. Lekin men esa xorman, sen mukkaramsan. Sen yor eshigida shodu xurramsan, men undan mahrum bo'lgan g'aribu majruhman. Sen boshingni yorim ko'chasi toshiga bosh qo'yib yotsang, menga ayriliq toshlari yog'iladi. Sen vafoda ham, sadoqat-u safoda ham mendan ortiqsan. Falak meni xor etdi, seni esa hurmat va sadoqatga sazovor etdi deya azob chekadi. Majnun ishq bobida, mehr va hurmat oldida o'zini itdan ham yupun his qildi.

Yangi davr ijodkorlari bu dostondan, so'ngra 1990 yillarda bosilgan Qur'onning o'zbekcha ma'nolar tarjimasidagi Kahf surasidan va boshqa diniy-ma'rifiy asarlardan ta'sirlanib she'rlar va hikoyalar yaratishdi. Masalan, Mahkam Mahmudning "As'hobi kahf" nomli hikoyasi bunga misoldir.

Globallashib borayotgan dunyoning global fojialaridan, chigal muammolaridan biri ma'naviy tarbiyasizlikdir. Bu vaziyatda As'hobi kahf mavzusining adabiyotda ishlanishi uning tarixiy, diniy va adabiy ahamiyatga egaligini ko'rsatyapti. Insonlar imonga suyangan holda yashashi kerak. Imonsizlik ijtimoiy tengsizlik, zulm, odamlar va boshqa mavjudotlarning haq-huquqlarini poymol etish muammosi XXI asrning eng

katta muammolaridan biridir. Bu nuqtadan boqilsa, As’obi kahf mavzusining o‘zi va uning adabiyotda ishlanishi naqadar qiymatli ekani anglashiladi.

### **Foydalanilgan Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz.O’zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo’shamcqjilisidagi nutq/Sh.M Mirziyoyev.- Toshkent :”O’zbekiston”,2016.
2. Dilmurod Quronov, ”Adabiyot nazariyasi asoslari” 2018,T.
3. I. Sulton,”Adabiyot nazariyasi”, Toshkent, 1980.
4. <http://www.ziyouz.com>
5. <http://www.wikipedia.org>